Yuk tashish. 2023-yil yanvar-iyun oylarida barcha transport turlari tomonidan 64,1 mln. tonna yuk tashilgan bo‘lib, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 95,5 foizni tashkil etdi.

Yuk aylanmasi barcha transport turlari tomonidan 1207,6 mln.tn-km. bo‘lib, 97,7 foizni tashkil qildi.

Yuk tashish va yuk aylanmasi transport turlari bo‘yicha quyidagicha ifodalanadi:

Transport turlari bo‘yicha yuk tashish va yuk aylanmasi hajmi

	2023- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyunga nisbatan, foiz hisobida
Tashilgan yuk, mln. tn	**64,1**	**95,5**
shu jumladan:		
avtomobil transportida	**64,1**	**95,5**
Yuk aylanmasi, mln. tn-km	**1 207,6**	**97,7**
shu jumladan:		
avtomobil transportida	**1 207,6**	**97,7**

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transportining yuk aylanmasi 2022-yil yanvar–iyunga nisbatan 8,9 foizga oshdi va 143,4 mln. tn-km.ni tashkil qildi.

Yuk aylanmasining umumiy hajmida xususiy yuk tashuvchilarning ulushi 11,8 foizni tashkil etdi (2022- yil yanvar– iyunda 9,3 foiz).

Yo‘lovchi tashish. 2023-yil yanvar-iyun oylarida barcha transport turlari tomonidan 679,2 mln.kishi tashilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 28,9 foizga ko‘paygan. Yo‘lovchi tashish aylanmasi ushbu davrda 2,5 foizga ko‘payib, 5 598,9 mln. yo‘lovchi-km. ni tashkil qildi.

Transport turlari bo‘yicha yo‘lovchi tashish va yo‘lovchi aylanmasi quyidagicha ifodalanadi

	2023- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyunga nisbatan, foiz hisobida
Transportda tashilgan yo‘lovchilar, mln. kishi	**679,2**	**128,9**
shu jumladan, avtomobil transportida	**598,2**	**103,6**
Yo‘lovchi aylanmasi, mln. yo‘lovchi-km	**6 189,1**	**128,9**
shu jumladan, avtomobil transportida	**5 598,9**	**102,5**

Xususiy yo‘lovchi tashuvchilar avtomobil transportida yo‘lovchi aylanmasi 2022 -yil yanvar-iyunga nisbatan 2,5 foizga oshib, 5 598,9 mln.yo‘lovchi-km.ni tashkil qildi. Yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida xususiy yo‘lovchi tashuvchilarning ulushi 24,7 foizni tashkil etdi (2022 -yil yanvar-iyunda 6,1 foiz).

STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

Umumiy foydalanishdagi avtomobil transporti – aholini va iqtisodiyotni barcha tarmoqlarining yo‘lovchilar, bagajlar va yuklar, shu jumladan, pochtalarni avtomobillarda tashishga bo‘lgan ehtiyojlarini tijorat asosida ta’minlovchi transport.

Avtotransport vositalari – yo‘lovchilar, bagajlar, yuklar tashishga hamda maxsus ishlarni bajarishga mo‘ljallangan avtomobillar, shatakchi-avtomobillar, tirkama va yarim tirkamalar.

Tashilgan yuklar (yuk tashish hajmi) – yuk avtomobillarida, shu jumladan avtotirkamalarda, tashilgan yuklar miqdori har bir qatnov uchun yukning tara yoki konteynerlar og‘irligini hisobga olgan holdagi haqiqiy og‘irligi bo‘yicha aniqlanadi (tonnada o‘lchanadi). Tashilgan yuk hajmini avtomobilning texnik tavsifnomasida ko‘rsatilgan yuk ko‘tarish qobiliyati bo‘yicha aniqlash, faqatgina tashilgan yukning haqiqiy og‘irligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar bo‘lmagan hollardagina amalga oshirilishi mumkin. Umumiy foydalanishdagi transportlarning barcha turlari uchun (avtotransportdan tashqari) tashilgan yuklarning hajmi jo‘natish vaqtida ko‘rsatilgan.

Yuk aylanmasi – transportning yuk tashish bo‘yicha ish hajmi. O‘lchov birligi tonna-kilometr hisoblanadi. Transportning yuk aylanmasi tashilayotgan yukning har bir jo‘natmasi og‘irligini uni tashish masofasiga ko‘paytmasining yig‘indisi orqali aniqlanadi.

Tashilgan yo‘lovchilar – ma’lum vaqt davomida avtomobil vositalarida turli qatnov turlari bo‘yicha tashilgan yo‘lovchilar soni (statistik kuzatuv birligi bo‘lib yo‘lovchiqatnovi hisoblanadi).

Yo‘lovchi aylanmasi – transportning yo‘lovchi tashish bo‘yicha ish hajmi. O‘lchov birligi yo‘lovchi-kilometr hisoblanadi. Har bir tashish bo‘yicha yo‘lovchilar sonini tashish masofasiga ko‘paytmasini yig‘indisi orqali aniqlanadi. Qatnov turlari va boshqa belgilar bo‘yicha alohida hisoblanadi.